Nazarov Anvarjon Tug‘unboyevich
University of Business and Science
Maktabgacha-boshlang‘ich ta’lim va jismoniy tarbiya kafedrasi dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

TURIZM BO‘YICHA YO‘RIQCHILARNING NAZARIY VA AMALIY TAYYORGARLIGI

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.15694590

Annotatsiya. Ushbu maqolada yo‘riqchilar mehmonxonalar va joylashtirish vositalari, transport vositalari, umumiy ovqatlanish ob’ektlari, ko‘ngil ochish ob’ektlari va vositalari, bilim orttirish, maxsus turizm bilan shug‘ullanuvchilarni tayyorlashda nazariya va amaliyot o‘zaro bog‘liqligi, tayyorgarlikning ko‘rsatilgan bo‘limlarida sport turizmining har bir turi uchun umumiy va maxsus savollar mavjudligi, maxsus turistik tayyorlanish uchun nazariy va amaliy bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish haqida nazariy ma’lumot va amaliy tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: hududning yirik va masshtabsiz tasvirlari, yerning masofalari, yo‘nalishlari, balandligining eng oddiy o‘lchovlari

Kirish

Mamlakatimizda ichki turizm sohasini rivojlantirish va uni ommalashtirish zamonaviy ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy taraqqiyotning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Turizm – nafaqat aholi, ayniqsa yoshlar va talabalar uchun sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, balki milliy qadriyatlarni chuqur o‘rganish va Vatanimizning tabiiy, tarixiy-madaniy boyliklari bilan yaqindan tanishish imkonini beradigan, keng qamrovli tarbiyaviy vositadir. Shu bois so‘nggi yillarda mamlakatimizda ichki turizmni rivojlantirish, uni boshqarish va tashkil qilishda turli sport jamiyatlari, kasaba uyushmalari, o‘quv muassasalari hamda mahalliy jamoalarning faol ishtiroki tobora kuchayib bormoqda.

Bugungi kunda hududlarda turizm sohasiga oid ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, xususan sayr-sayohatlar, ekskursiyalar, ommaviy sog‘lomlashtirish tadbirlarini samarali va xavfsiz o‘tkazish uchun malakali jamoatchi instruktorlar, hakamlar va tashkilotchilar tayyorlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayon esa tegishli qonun hujjatlari, hukumat qarorlari, Respublika kasaba uyushmalari kengashining nizomlari, maxsus ko‘rsatma va dasturlar asosida yo‘lga qo‘yilmoqda.

Mazkur maqolada ichki turizm bo‘yicha rejalashtirilgan sayohat ishlarini tashkil qilish, boshqarish, instruktorlar va jamoatchi kadrlar tayyorlashning zamonaviy yondashuvlari, bu boradagi amaliy muammolar va istiqbolli yo‘nalishlar batafsil tahlil etiladi. Shuningdek, ushbu jarayonlarning o‘quv-tarbiya muassasalari, ishlab chiqarish jamoalari va mahallalarda ahamiyatli jihatlari, ularning ijtimoiy-tarbiyaviy samaradorligini oshirish yo‘llari yoritiladi.

Ichki turizm bo‘yicha rejalashtirilgan sayohat ishlarini tashkil qilish, boshqarishda mazkur sport uyushmalarining u yoki bu darajada xissalari borligi e’tirof etildi. Shu asnoda barcha xududlar va boshlang‘ich jismoniy madaniyat jamoalarida (o‘quv muassasalari, mehnat jamoalari) turizm ishlarini qayta qurish, boshqarish, ayniqsa turli sayr-sayohatlarni o‘tkazish uchun turizm bo‘yicha jamoatchi kadrlar (instruktorlar, hakamlar) tayyorlashda o‘z ish mazmunlarini boyitishlariga to‘g‘ri keladi. Bu asosan "Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida" (2000 y.), "Turizm to‘g‘risida" (1999 y.), "Ta’lim to‘g‘risida"gi (1997 y.) qonunlar va shu sohalarga doir hukumat qarorlarini amalga oshirish faoliyatlarni taqozo etadi.

Turizm bo‘yicha instruktorlar tayyorlash

ishlarini asosan Respublika kasaba uyushmalari Kengashi tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan (1987 y.) maxsus Nizomlar, ko‘rsatmalar (instruktsiya) va maxsus dasturlar asosida tashkil qilish maqsadga muvofiq.

O‘zbekistonda kadrlar tayyorlashda Respublika madaniyat va sport ishlari vazirligining (sobiq madaniyat ishlari vazirligi va Respublika davlat sport qo‘mitasi) o‘ziga xos xususiyatlari mavjud, ya’ni:

Jismoniy tarbiya va sport ixtisosligi bo‘yicha mutaxassis kadrlar tayyorlash;

Madaniyat va san’at sohasida ixtisosli kadrlar tayyorlash, ikki sohaning ham oliy ta’lim muassasalari, kasb-xunar kollejlari mavjud. Ularda jismoniy tarbiya va sport, shuningdek turizm fan sifatida o‘qitiladi. Turli sayohatlar tashkil etiladi. Muhimi shundaki, ularga sport turlari bo‘yicha federatsiyalar (sport yo‘nalishi), badiiy akademiya, teatr jamiyati uyushmasi (madaniyat yo‘nalishi) va boshqa jamoatchi tashkilotlar amaliy jihatdan yordam berib boradi. Ya’ni kadrlar tayyorlash, mutaxassislarning malakasini oshirish, ijodiy ko‘maklashish kabilar.

Shu o‘rinda aytish lozimki, turizm sport turlari bo‘yicha mavjud bo‘lgan Respublika federatsiyasini qayta tiklash, bunda ommaviy sayr- sayohatlarni rivojlantirishga yo‘llar ochib berish lozimdir, ya’ni viloyat, shahar-tuman miqyosida turizm federatsiyalarining tuzilishi va ularning amaliy faoliyatlari instruktor-tashkilotchilarni tayyorlash, turizmmusobaqalari (sletlar) va boshqa ommaviy-madaniy tadbirlarni uyushtirishda bevosita yordami bo‘ladi.

Xullas, turizm bo‘yicha jamoatchi instruktor kadrlar tayyorlash ishlari hozirgi davr talablaridan biridir.

Xulosa qilib aytganda, turizm bo‘yicha instruktor kadrlar tayyorlashda mustaqil g‘oyalarini singdirish, ma’naviy-ma’rifiy madaniyat tarbiyasini ustun qo‘yish, aholining sihat-salomatligini yaxshilash va o‘quvchi yoshlarning jismoniy barkamolligini o‘stirish yo‘llari asos qilib olinishi lozim.

Instruktorlarning mavqesini oshirish, o‘z ishlarida mas’uliyatlarini chuqur sezish va turizmga ommaviy ravishda hissa qo‘shish maqsadida ularga maxsus guvohnomalar (sertifikat) va ko‘krakka taqiladigan nishonlarni (znachok) tayyorlash, hamda ularga taqdim etish eng muhim tarbiyaviy jarayondir.

Umumiy xulosa shundaki, mamlakatda turizm harakatini tashkil qilish va boshqarish davlat hamda jamoatchilik tizimlari tashkil etilib, ular aholining turizm bilan faol shug‘ullanishlariga imkoniyatlar yaratmoqda.

O‘quv-tarbiya muassasalari, ishlab chiqarish korxonalari va turli ixtisoslikdagi boshlang‘ich jamoalarda xalqaro va mahalliy turizmning ijtimoiy-madaniy va tarbiyaviy xususiyatlariga e’tibor kuchaytirilmoqda.

O‘zbekturizm Milliy Kompaniyasi, ekosantur xalqaro jamiyati, o‘rmon xo‘jaligi va qo‘riqxona idora-tashkilotlarining amaliy faoliyatlari ishlab chiqarish-o‘zini-o‘zi moliyaviy ta’minlash tamoyillari asosida rivoj topmoqda.

O‘quv muassasalari, mehnat jamoalari va mahallalarda sayr-sayohat tadbirlarini uyushtirish va boshqarishda jamoatchi kadrlar-instruktorlar katta faoliyat ko‘rsatmoqda.

Tuman, shahar miqyosida turizm bo‘yicha instruktor-tashkilotchi faollarni tayyorlash bilan boshlang‘ich jamoalar faoliyatiga ko‘maklashish izga tushmoqda.

Bugungi axborot jamiyatida ommaviy axborot vositalari — gazeta, jurnal, internet nashrlari, teleradioeshittirishlar va ijtimoiy tarmoqlar — jamiyat hayotining barcha jabhalarida, jumladan, ichki turizm va o‘lkashunoslik madaniyatini shakllantirishda muhim o‘rin tutmoqda. Ayniqsa, so‘nggi yillarda teleradiokanallar, internet portallari va videoplatformalarda O‘zbekistonning tabiiy, tarixiy, madaniy obidalari, qadimiy yodgorliklari, diqqatga sazovor joylari, yangi sayyohlik yo‘nalishlari, mahalliy urf-odat va an’analari haqida lavhalar, hujjatli filmlar, intervyular, fotosuratlar va qisqa videoroliklar keng targ‘ib qilinmoqda.

Bunday ommaviy axborot vositalari orqali namoyish etilayotgan o‘lkashunoslik va sayyohlik mavzularidagi materiallar keng

jamoatchilik, xususan, yoshlar va talabalar, o‘quvchi-yoshlar orasida o‘z yurtining tabiati, tarixi, milliy qadriyatlariga nisbatan qiziqish, g‘urur va mehr uyg‘otmoqda. Shuningdek, ularning orzu-umidlari, sayr-sayohatlarga bo‘lgan havas va ishtiyoqi yanada ortib, mazkur sohada faol ishtirok etishga undamoqda.

Natijada, sayr-sayohat, ekskursiya va turizmga oid ilmiy-ma’rifiy materiallar, ko‘rsatuv va maqolalar aholining ongi va dunyoqarashini kengaytirib, ularni faol turmush tarziga jalb etadi. Ayniqsa, mahalliy manzillarning ommaviy axborot vositalari orqali muntazam yoritilishi, o‘quv-tarbiya muassasalari va ishlab chiqarish jamoalarida sayr-sayohatlar, o‘lkashunoslik tadbirlarini tashkil qilishga turtki beradi. Bu esa nafaqat aholining bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish, balki ma’naviy-ma’rifiy tarbiya, sog‘lomlashtirish, ekologik madaniyatni rivojlantirish va milliy o‘zlikni anglash jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shunday qilib, zamonaviy ommaviy axborot vositalarining o‘lkashunoslik va turizm sohasidagi faol targ‘ibot-tashviqot ishlari nafaqat sohaning taraqqiyotini ta’minlab, balki keng jamoatchilikning ongida sayohatga, o‘z yurtini chuqur o‘rganishga, vatanparvarlik va sog‘lom hayot tarziga bo‘lgan ishtiyoq va intilishni kengaytirib bormoqda.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda ichki turizmni rivojlantirish va ommalashtirish jarayonida jamoatchi instruktorlar, hakamlar va tashkilotchilar tayyorlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu sohada qabul qilingan qonun hujjatlari, hukumat qarorlari va maxsus dasturlarning hayotga tatbiq etilishi turizm faoliyatini zamonaviy bosqichga olib chiqmoqda. Jamoatchi kadrlar tayyorlash, ularning malakasini oshirish, turizm federatsiyalarining faoliyati va ijtimoiy-madaniy tadbirlarni kengaytirish orqali aholining, ayniqsa yosh avlodning ma’naviy va jismoniy kamolotiga zamin yaratiladi.

Shuningdek, o‘quv-tarbiya muassasalari, ishlab chiqarish jamoalari va mahallalarda turizm ishlarini qayta tashkil qilish, sayr-sayohatlar va ekskursiyalarni malakali tashkilotchilar ishtirokida o‘tkazish, instruktorlarga motivatsiya va e’tibor berish sohada yangi sifat bosqichini shakllantirmoqda. Ommaviy axborot vositalarining targ‘ibot-tashviqot ishlari, turizm faoliyatining ijtimoiy-tarbiyaviy, sog‘lomlashtiruvchi va madaniy ahamiyatini yanada oshirib, aholi orasida turizmga qiziqish va ishtirokni kengaytirib bormoqda.

Kelgusida turizm sohasida kadrlar tayyorlash, ularning kasbiy saviyasini oshirish va federatsiyalar faoliyatini takomillashtirish orqali mamlakatimizda ichki turizmni yanada rivojlantirish, yoshlarning jismoniy va ma’naviy barkamolligini ta’minlashga keng imkoniyatlar yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Теория и методика спортивного туризма : учебник / под ред. В. А. Таймазова, Ю. Н. Федотова. – М. : Советский спорт, 2014. – С. 201–203.

2. Леонтьев, А. Н. Деятельность, сознание, личность / А. Н. Леонтьев. – М. : Смысл, 2004. – 351 с.

3. Matnazarov, O‘. L., Sharipov, A. K. Oliy o‘quv yurtlari jismoniy madaniyat mashg‘ulotlarida inson omili // Ilm sarchashmalari. – Urganch, 2005. – № 2. – B. 106–107.

4. Masharipov, Y. Sport psixologiyasi. – Samarqand : SamDU nashr-matbaa markazi, 2013. – 98 b.

5. Теория и методика спортивного туризма : учебник / под ред. В. А. Таймазова, Ю. Н. Федотова. – М. : Советский спорт, 2014. – С. 123–124.

6. Теория и методика спортивного туризма : учебник / под ред. В. А. Таймазова, Ю. Н. Федотова. – М. : Советский спорт, 2014. – С. 127.

7. Федотов, Ю. Н., Востоков, И. Е. Спортивно-оздоровительный туризм : учебник. – М. : Советский спорт, 2003. – 78 с.